

## AMALIYOTCHI PSIXOLOG SHAXS VA MUTAHASIS SIFATIDA

*Asilaxon Tojiddinovna*

*Toshkent amaliy fanlar Universiteti "Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi*

*Xoliyorova Farzona*

*Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada amaliyotchi psixologlarning shaxs sifatida egallashi lozim bo'lgan xususiyatlari va muataxassis sifatida jamiyat hayotidagi o'rni muhokama qilingan. Shuningdek, amaliyotchi psixologlarning axloqiy va kasbiy tamoyillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixolog, amaliyot, jamiyat, kasb, professional, etika, estetika, psixologik xizmat, korreksiya.

### **Kirish**

Psixologik xizmatning asosiy mazmuni – sog'lom shaxsning o'sishini ta'minlash shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish va kasb tanlash muammosidir. Birinchi bo'lib 1975 yilda Estoniyada psixologik xizmat tashkil etildi. Uning rahbari X.I.Liymets, Yu.L.Serd bo'lib tarbiyasi qiyin o'smirlar uchun ish olib bordilar. Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan. Har bir davlatning ijtimoiy taraqqiyoti o'sha davlat hududida yashovchi fuqarolarning ijodiy o'sishi va axloqiy potensialiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bu kasb AQShda o'tgan XX asrning 1960 yillarida paydo bo'lib hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy tarmoq hisoblanadi. AQShda 1980 yillarda maktab psixologlarining Milliy assotsiyasi tuzilgan edi. AQShda maktab psixologining markaziy vazifalarida biri o'quvchilarning aqliy rivojlanish sifatini test savollari orqali baholash hisoblanadi. Psixolog B.L.Vulfson Fransiyaning hozirgi vaqtdagi pedogogik muammolarini taxlil qilib yaqin vaqtlargacha test uslubi AQSH va Agiliyadagidek keng tarqalmagan degan fikrni aytadi . Fransiya maktablarida bolaning aqliy faoliyatlari va qobiliyatlarini testlar orqali aniqlash o'tgan asrning 70-yillari boshidan boshlaganligi ma'lum. Lekin hozirgi vaqtda odamning faqatgina aqliy faoliyati bilan emas balki shaxs bo'lib shakllanishi jarayonida uni har tamonlama baholashga to'g'ri keladi. O'zbekistonda psixologik xizmatning tadbiiq etilishi. 1989-yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sabab Nizomiy nomli TDPUDA amaliyotchi psixologloglar tayyorlash fakulteti ochildi. O'zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida E.G'oziyev, M.G.Davletshen, G.B.Shoumarov, V. M. Karimova, Sh. R.Baratov, E.H.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nizamova, H.S.Safoyev, F.L.Xaydarov, B.R.Qodirov, S.X.Jalilova, va boshqalar fan rivojida o'z hissasini qo'shgan va hozirga qadar o'z izlanishlarini davom ettirmoqda. Bugungi kunda ko'pchilik umumiy o'rta

ta'lim maktablari o'zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o'qituvchilar ko'pincha psixologning qo'lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarini bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi. Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda tashqi jihatdan hech narsa o'zgarmaganini ko'rishgach, ularda «Maktab psixologining o'zi nima keragi bor?» degan tipdagi savollar tug'iladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o'rgangan nazariy bilimlar yetmay qoladi. Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko'pincha amaliyotning ular oldiga qo'ygan muammolaridan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak. Psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish:

2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik-pedagogik o'rganilishini taminlash:

3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o'qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas. Psixolog maktabda yengib o'tishi kerak bo'lgan birinchi to'siq - bu maktabning pedagogik jamoasiga qo'shila olishdir. Bordini psixolog bu murakkab organizmga qo'shib keta olmasa, o'z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir. Dastlabki qadamlarni qo'yishda ota - onalar bilan aloqa o'rnatish juda muhim. Dastlabki aloqa ixtiyoriy xarakterda bo'lishi va o'zi murojaat qilgan ota-onalar bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun psixolog alohida kun va soatlarni ajratishi lozim. Demak, umumiy o'rta ta'lim maktabida ishni boshlashdan avval psixolog:

1. O'zining pedagoglar jamoasi va maktab ma'muriyati bilan bo'lgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi.

2. O'z ishining asosiy maqsadi - bu bolaning optimal rivojlanishini ta'minlash ekanini doim yodda saqlashi.

3. O'zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog'liq bo'lgan diagnostik va rivojlantiruvchi ishga alohida e'tibor bilan qarashi (axir kasalni tuzatgandan uning oldini olgan ma'qulroq - da) lozim bo'ladi.

O'qituvchi psixologning mijoz va yaqin hamkori sifatida O'qituvchilar ham alohida e'tibor talab qiladigan ob'ektdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, odatda o'qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladilar. Hamma gap psixolog o'zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o'qituvchilarga nisbatan

egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o'ynaydi. Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- a) pedagog bilan bo'lgan munosabatga ustanovka;
- b) pedagoglarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka.
- v) sub'ekt - sub'ekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka.

Mana shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo'lgan konstruktiv hamkorlikni ta'minlay oladi. Dastlabki kezlarda psixolog o'qituvchilarga o'z yordamini haddan tashqari faollik bilan tiqishtirmasligi zarur. Kamtarona ravishda, agar zarur bo'lsa, yordam berishga tayyorligini ma'lum qilsa, shuning o'zi kifoya. Kimdir darrov hamkorlikka shoshiladi kimdir birozdan so'ng kimgadir umuman psixolog yordami kerak bo'lmaydi. O'qituvchilar bilan ishlashda bolada ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarga asosan o'qituvchi sababchi bo'layotganini ta'kidlab turishi kerak. Psixologning ishi «soyada» qolishi kerak. SHunda u pedagoglar orasida tan olinadi. O'qituvchilar bilan olib boriladigan individual ishlardan tashqari ular bilan seminarlar shaklida psixologik targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvoviqdir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad kimgadir o'z bilimlarini ko'z-ko'z qilish emas, balki pedagoglarning psixologik madaniyatini oshirishdir. Ushbu mashg'ulotlarni shunday tashkillashtirish kerakki, o'qituvchilar passiv tinglovchi bo'lib qolmasinlar. Buning uchun har bir psixologik ma'lumotga ularni o'z tajribalaridan misollar keltirishga undash kerak. Oxirida esa biror bir hazil aralash testni bajarish hammaga yaxshi kayfiyat baxsh etadi. Har qaysi maktab psixologi oldidagi savol shuki «O'zim yordamimni taklif qilaymi yoki o'qituvchilar murojaat qilishini kutaymi?» Mayli bu savolga har kim o'z vaziyatidan kelib chiqib javob bera qolsin. Lekin psixolog bir narsani unutmasinki, o'qituvchilarning unga murojat qilishi ularning pedagogik staji va tajribasiga bog'liq emas. Bu ko'proq ularning shaxsiy fazilatlariga: muloqatga kirishuvchanlik darajasi, xavotirlanuvchanlik, qiziquvchanligi yangilikka ochiqligi va boshqalarga bog'liq.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda esa, psixolog o'quvchilar xarakterida mavjud bo'lgan yutuqlarni rivojlantirish va kamchiliklarni tuzatish, o'z xatti-harakatlarini kuzatish, tahlil qilish, baholash, o'zining kayfiyat va xulq atvorini boshqarish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish haqida tavsiyalar beradi. Umum o'rta ta'lim maktablarida ish olib borayotgan amaliyotchi psixologlar o'z faoliyati davomida ta'lim muassasining ijtimoiy muhitini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi, va ijtimoiy moslashmaslik ularning zo'riqishlarini yuz berishini oldini olish uchun psixologik xizmatning o'rni beqiyos. Psixologik xizmat faoliyati o'quvchilar aqliy faoliyat taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarini diagnostika qilishga, ta'lim-tarbiyasidagi buzilishlarning psixologik sabablarni aniqlashgagina qaratilmasdan, balki bunday buzilishlarni yo'qotish va

oldini olishga qaratiladi. Bunday psixologning aniqlagan va to'plagan ma'lumotlari o'quvchilarni korreksiya qilishda faol ishtirok etish zarurligi kelib chiqadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Boymurodov, N. (2008). Amaliy psixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41–46.
4. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
5. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.
6. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.
7. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020).